

SHAXSNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI.

Qodirjonov Doniyor

Toshkent davlat agrar universiteti talabasi.

Ziyodullayeva Farangiz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10536056>

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsning individual xususiyatlari, qobiliyatlardagi tugʻma va orttirilgan sifatlar, eng talantli, mashhur shaxslarning eng buyuk ishlari, erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarining tagida ham qisman layoqat va asosan tinimsiz mehnat, intilish, ijodkorlik va bilimga chanqoqlik yotganligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, temperament, individual sifatlar, individuallik, qobiliyat, intellekt, mehnat, tajriba, iroda.

INDIVIDUAL CHARACTERISTICS OF THE PERSON.

Abstract. This article provides information about the individual characteristics of a person, the innate and acquired qualities of abilities, the greatest works of the most talented and famous people, and the fact that the greatest success is partially due to talent and mostly tireless work, aspiration, creativity and thirst for knowledge.

Key words: personality, temperament, individual qualities, individuality, ability, intelligence, work, experience, will.

ИНДИВИДУАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЧЕЛОВЕКА.

Аннотация. В данной статье представлены сведения об индивидуальных особенностях человека, врожденных и приобретенных качествах способностей, величайших произведениях наиболее талантливых и знаменитых людей, а также о том, что в основе их большого успеха лежит отчасти талант и главным образом неутомимость. труд, стремление, творчество и жажда знаний.

Ключевые слова: личность, темперамент, индивидуальные качества, индивидуальность, способности, интеллект, труд, опыт, воля.

Shaxs – psixologiya fanining asosiy ilmiy tushunchalaridan biri boʻlib hisoblanadi. Shaxsning nimaligini tushunish va uning ruhiy tuzilishini taʼriflash imkonini beruvchi asosiy xossalarni ajratib olish uchun ushbu tushunchani «inson individ shaxs individuallik» qatorida koʻrib chiqamiz. Inson oʻta murakkab mavjudot sifatida cheksiz murakkab dunyoda, aniqrogʻi, koʻplab dunyolarda yashaydi, ularning ichidan zamonimizning mashhur faylasuflaridan biri Yurgen Habermas asosiylari sifatida uch dunyoni: tashqi dunyo, ijtimoiy dunyo («bizning olam»), ichki dunyo («mening olamim»), individuallik va betakrorlik «mening mavjudligimning» betakrorligi) ajratishni taklif etdi.

Tashqi dunyo – bu insonning tabiat qonunlarini bilishda va ularni oʻz maqsadlarida tabiatni qayta tuzish uchun qoʻllashda egallaydigan tabiat olami. Bu fan, texnika, amaliyot olamidir. Bu barcha narsa isbot talab etuvchi maqsadga muvofiq faoliyat olamidir. Ijtimoiy dunyo – bu insonni dunyoga kiritishning asosiy vositasi jismlil faoliyat boʻlgan olam. Insonni atrofdagi olamga va oʻziga nisbatan munosabatlarining rang-barangligida tushunish, faolligining manbalarini topish va yoʻnalishini anglash uchun insonning olamda tutgan oʻrnini aniqlab olish zarur. Insonga shaxs sifatida yondoshish, avvalambor, insonga jamiyat tuzilishida tutgan oʻrni bilan aniqlanuvchi

jamiyatning birligi sifatida qarash bilan bog'liqdir. Insonni biologik organizm, tur birligi sifatida hayvondan farq qiluvchi tub negizli belgisi jamiyatga tegishlilik, ijtimoiylik hisoblanadi.

Bundan kelib chiqadiki, shaxsni o'rganishda dastlabki holat bo'lib uning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy munosabatlar tizimiga kiritilganligi xizmat qiladi. Agar biz shaxs munosabatlari haqida insonning dunyoga shaxsiy tegishliliigi va bu bilan bog'liq kechinmalar ma'nosida so'z yuritadigan bo'lsak, u holda inson mavjud bo'la oladigan keyingi – bu «mening» ichki olamim dunyosiga murojaat qilamiz. Bu dunyo kechinmalar, shaxsiy mohiyatlar, shaxsiy dahldorlikni his etish, u yoki bunga shaxsiy tegishlilik, boshqa odamlar bilan mavjudlikning «hodisaviyligi» bilan to'la. Bu dunyoga jismlil faoliyat o'z shaklini o'zgartirgan holda oddiy holatdagi foydali faoliyat, shaklini yo'qotgan jismlil harakat bo'lib emas, balki, «shaxsiy» faoliyat, ijodiyot sifatida kiradi, ijtimoiy hulq-atvor esa «mening» dunyosiga shaxslararo munosabat, boshqa odamlarning ichki dunyosiga yaqinlashish, boshqalarga o'zini ochishning vositasi, o'zini namoyon etish sifatida kirib keladi. «Mening» dunyosida unga xos bo'lgan maxsus faoliyat turlari: o'yin, san'at, din, ichki dunyolar yaqinlashuvi sifatidagi muloqot paydo bo'ladi.

Individuallik – bu ma'lum insonning, uning noyobligi, betakrorligi nuqtai nazaridan o'ziga xos bo'lgan ruhiy, fiziologik va ijtimoiy xususiyatlar yig'indisi. Individuallik – bu ko'rib chiqilgan tushunchalar ichida mazmuniga ko'ra eng tor tushuncha hisoblanadi. U o'zida insonning boshqa odamlardan farq qiluvchi o'ziga xos va shaxsiy xossalarni jamlaydi. Individuallik turli xildagi tajriba, bilimlar, fikrlardagi tafovutlar, xarakter va temperamentlardagi farqlar, o'zimiz isbotlaydigan, tasdiqlaydigan o'ziga xos xususiyatlarimizda namoyon bo'ladi.

Motivlar, temperament, xarakter, layoqatlar – individuallikning asosiy ko'rsatkichlari. «Individuallik» tushunchasi individning faqat o'ziga xos ruhiy xususiyatlarini emas, balki morfofiziologik xususiyatlarini ham aks ettiradi. Individuallik – o'z mohiyatiga ko'ra, boshqalar tomonidan kuzatilishi mumkin bo'lgan, tashqarida joylashgan narsa. Faqat boshqalar bir odamning boshqasidan farqini, ya'ni, uning individualligini aytib berishi mumkin.

Qobiliyatlardagi tug'ma va orttirilgan sifatlar. Ba'zan o'ta iqtidorli va qobiliyatli bola haqida gap ketsa, undagi bu sifat tug'ma ekanligiga ishora qilishadi. Talantli, genial olim, san'atkor yoki mutaxassis haqida gap ketsa ham xuddi shunday. Umuman qobiliyatlarning tug'ma yoki orttirilgan ekanligi masalasi ham olimlar diqqat markazida bo'lgan muammolardan.

Psixologiyada tug'malik alomatlari bor individual sifatlar layoqatlar deb yuritildi va uning ikki xili farqlanadi: tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat. Birinchisi odamdagi tug'ma xususiyatlardan — oliy nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari, miyaning yarim sharlarining qanday ishlashi, qo'l-oyoqlarning biologik va fizilogik sifatleri, bilish jarayonlarini ta'minlovchi sezgi organlari — ko'z, quloq, burun, teri kabilarning xususiyatlaridan kelib chiqsa (bular nasliy ota-onadan genetik tarzda o'tadi), ijtimoiy layoqat — bola tug'ilishi bilan uni o'ragan muhit, muloqot uslublari, so'zlashish madaniyati, qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar (ular ota-ona tomonidan yaratiladi) dir.

Layoqatlilik belgisi — bu o'sha individga aloqador bo'lib, u bu ikkala layoqat muhitini tayyoricha qabul qiladi. Qobiliyatsizlik va intellektning pastligi sabablaridan ham biri shuki, ana shu ikki xil layoqat o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Masalan, genial rassom oilasida bola tug'ildi deylik. Unda rassomchilik uchun tug'ma, genetik belgilar otasi tomonidan berilgan deylik.

Lekin bolaning onasi farzandining ham rassom bo'lishini xohlamasligi, o'ziga o'xshash qo'shiqchi bo'lishini xohlashi mumkin.

Ayol bolani yoshlikdan faqat musiqa muhitida tarbiyalaydi. Tabiiy layoqatning rivoji uchun ijtimoiy layoqat muhiti yo'q, ijtimoiy layoqat o'sishi uchun esa tabiiy, tug'ma layoqat yo'q bo'lgani sababli, bolada hech qanday talant namoyon bo'lmasligi, u oddiygina musiqachi yoki qo'shiqchi bo'lish bilan cheklanishi mumkin. Intellect testlari va qobiliyatdagi tug'ma va orttirilgan belgilarni o'rganishning psixologik ahamiyati aynan shunda. Ilk yoshlikdan bolaning o'zidagi mavjud imkoniyatlarni rivojlantirish shart-sharoitini yaratish ishini to'g'ri yo'lga qo'yish kerak. Orttilgan sifati shuki, bola toki bilim, malaka va ko'nikmalarni o'stirish borasida harakat qilmasa, eng kuchli tug'ma layoqat ham layoqatligicha qolib, u iqtidorga aylanmaydi.

Eng talantli, mashhur shaxslarning eng buyuk ishlari, erishilgan ulkan muvaffaqiyatlarining tagida ham qisman layoqat va asosan tinimsiz mehnat, intilish, ijodkorlik va bilimga chanqoqlik yotgan. Shuni ham unutmaslik kerakki, qobiliyatsiz odam bo'lmaydi.

Agar shaxs adashib, o'zidagi haqiqiy iqtidor yoki layoqatni bilmay, kasb tanlagan bo'lsa, tabiiy, u atrofdagilarga layoqatsiz, qobiliyatsiz ko'rinadi. Lekin aslida nimaga uning qobiliyati borligini o'z vaqtida to'g'ri aniqlay olishmagani sabab u bir umr shu toifaga kirib qoladi. Shuning uchun ham har bir ongli inson o'zidagi qobiliyat va zehni ilk yoshlikdan bilib, o'sha o'zi yaxshi ko'rgan, «yuragi chopgan» ish bilan shug'ullansa, va undan qoniqish olib, qobiliyatini o'stirishga imkoniyat topib, yutuqlarga erishsa, biz uni iqtidorli deymiz. Iqtidor-insonning o'z xatti-harakatlari, bilimlari, imkoniyatlari, malakalariga nisbatan subyektiv munosabatidir.

Iqtidorli odam genial yoki talantli bo'lmasligi mumkin, lekin u har qanday ishda mardlik, chidamlilik, o'z-o'zini boshqara olish, tashabbuskorlik kabi fazilatlariga ega bo'lib, o'zlari shug'ullanayotgan ishni bajonidil, sitqidildan bajaradi. Ular ana shunday harakatlari bilan ba'zi o'ta iste'dodli, lekin kamxarakterat kishilardan ko'ra jamiyatga ko'proq foyda keltiradi. Iqtidorli insonda iste'dod sohibi bo'lish imkoniyati bor, zero iste'dod — har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir.

U tinimsiz mehnat, o'z qobiliyatini takomillashtirib borish yo'lida barcha qiyinchiliklarni yengish va irodasi, butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo'lga kiritiladi.

Qobiliyatlarning psixologik strukturasi. Qobiliyatlar avvalom bor umumiy va maxsus turlarga bo'linadi va har birining o'z psixologik tizimi va tuzilishi bo'ladi. Shaxsning umumiy qobiliyatlari undagi shunday individual sifatlar majmuiki, ular odamga bir qancha faoliyat sohasida ham muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish va natijalarga erishishga imkon beradi. Masalan, texnika oliy o'quv yurtining talabasi ham ijtimoiy-gumanitar, ham aniq fanlar, ham texnika fanlari sohasidagi bilimlarni o'zlashtira oladi.

Bunda unga umumiy bilimdonlik, nutq qobiliyatlari, tirishqoqlik, chidam, qiziquvchanlik kabi qator sifatlar yordam beradi. Maxsus qobiliyatlar esa ma'lum bir sohada yutuqlarga erishish, yuqori ko'rsatgichlar berishga imkon beruvchi sifatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, sport sohasi bilan buxgalterlik hisob-kitobi bo'yicha ishlayotgan ikki kishida o'ziga xos maxsus qobiliyatlar bo'lmasa bo'lmaydi. Har bir qobiliyat o'zining tizimiga ega.

Masalan, matematik qobiliyatni oladigan bo'lsak, uning tarkibiga umumlashtirish malakalari, aqliy jarayonlarning egiluvchanligi, mavhum tafakkur qila olish kabi qator xususiyatlar kiradi. Adabiy qobiliyatlarga ulardan farqli, ijodiy hayol va tafakkur, xotiradagi

yorqin va ko'rgazmali obrazlar, estetik xislar, tilni mukammal bilishga layoqat; pedagogik qobiliyatlarga esa — pedagogik odob, kuzatuvchanlik, bolalarni sevish, bilimlarni o'zgalarga berishga ehtiyoj kabi qator individual xossalar kiradi.

Xuddi shunga o'xshash qolgan barcha qobiliyatlarni ham zarur sifatlar tizimida tahlil qilish mumkin va bu katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi. Hozirgi davrda temperament tipi deganda, ma'lum insonlar guruhi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning sodda majmuasi emas, balki mazkur xususiyatlarning qonuniy, zaruriy o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Temperament tipini tavsiflovchi xususiyatlarning qonuniy tarzda o'zaro bog'liqligi quyidagicha aks etishi mumkin.

Shaxs temperamentlari. Temperament 4 ta turga bo'linadi.

Sangvinik yuksak reaktivlik. Bo'lar-bo'lmas narsalarga qattiq xoxolab kulaveradi.

Muhim bo'lmagan fakt qattiq jahlini chiqaradi. Diqqatini jalb qilgan hamma narsalarga tetik va zo'r qo'zg'alish bilan javob beradi. Imo-ishoralari va harakatlari yaqqol ko'rinib turadi. Uning aft-basharasiga qarab kayfiyatining qandayligini, narsalarga yoki odamga bo'lgan munosabatlarini bilish oson. Diqqatini tez bir joyga to'playdi.

Sust senzitivlikka ega. Sezgirlik chegarasi yuksak. Juda kuchsiz tovushlarni va yorug'lik qo'zg'ovchilarni payqamaydi. Aktivligi yuksak, juda g'ayratli va ishchan, darslarda tez-tez qo'l ko'tarib turadi, toliqmasdan uzoq vaqt ishlashi mumkin, yangi ishlarga g'ayrat bilan kirishadi.

Faolligi va reaktivligi muvozanatli. Uni intizomga chaqirish oson. U o'z hissiyotlarining namoyon bo'lishini va o'zining ixtiyorsiz harakatlarini tez ushlab qola oladi. Harakatlari shiddatli, nutqi tez, yangi ishga tezlik bilan kirishadi, diqqatini tez to'playdi. Aqli tez ishlaydi, topqir. Harakatlari nihoyat darajada silliqlik xususiyatiga ega. Hissiyotlari, kayfiyatlari, qiziqishlari va intilishlari juda o'zgaruvchan. U yangi kishilar bilan tez kirishib ketadi. Yangi talablar, yangi sharoitga osonlik bilan o'rganadi. Bir ishdan ikkinchi ishga tez ko'cha oladi.

Malakalarni tez o'zlashtiradi va tez qayta o'zgartiradi. Aqli ixcham. Ekstrovertlik xususiyatiga ega. O'tgan va kelajak hayot haqida tasavvurlariga qaraganda quyiroq tashqi taassurotlarga javob beradi.

Xolerik xuddi sangvinik kabi sust senzitivlik, yuksak reaktivlik hamda faollik bilan ajralib turadi, lekin faollikdan reaktivlik ustunlik qiladi. Shuning uchun u tinimsiz o'zini ushlay olmaydigan, betoqat, serzarda. Sangvinikka qaraganda ozroq silliq va qo'proq qotib qolgan. Shuning uchun intilishlari va qiziqishlarida katta barqarorlik, zo'r qatilylik bor, diqqatini ko'chirishda qiyinchilikka uchraydi. Psixik tempi tez. Bir ishni boshlasa oxiriga etkazadi, ammo unga qiziqsa.

Flegmatik – senzitivligi sust, hissiy qo'zgaluvchanligi oz, kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ammo bir narsa yuzasidan qattiq kulganda u vazminligicha qolaveradi. Katta ko'ngilsiz hodisa yuz berganda ham osoyishtaligini buzmaydi. Imo-ishoralari oz, harakatlari ifodasiz. G'ayrati ishchanligi bilan ajralib turadi. Yuksak faolligi oz, reaktivligidan ancha ustunlik qiladi. Chidamliligi, matonati, o'zini tuta bilish bilan ajralib turadi. Harakatlarining tempi va nutqining tempi sust, ifodasiz. Diqqatini sekinlik bilan to'playdi. Yangi sharoitga qiyinchilik bilan moslashadi. Yangi odamlarga qiyinchilik bilan qo'shiladi. Tashqi taassurotlarga qiyinchilik bilan javob qaytaradi.

Melanxolik – yuksak senzitivlik xususiyatiga ega. Sezgirligi yuksak (sezgi chegaralari yuqori). Arzimagan sababga ko'ra, ko'zlaridan yosh oqib ketaveradi. Nihoyatda arazchan, sekin

yig'laydi. Samimiy, juda oz kuladi, faolligi sust. O'ziga ishonmaydi, tortinchoq, ozgina qiyinchilik tug'iladigan bo'lsa, qo'lini yuvib qo'ltig'iga urib qo'ya qoladi. G'ayratsiz qat'iy emas. Diqqati tez chalg'iydi, barqaror emas. Psixik tempi sust. Rigid (qotib qolgan). Introvertlik xususiyatiga ega.

Xulosa

Shunday qilib, temperament individning tabiiy belgilangan psixik xususiyatlarining individual o'ziga xos yig'indisidir. Bu xususiyatlarga umumiy nerv-psixik faollikning jadalligi, zo'riqqanligi, ta'sirlanish va harakatlarning maromi, individning motorli, aqliy va kommunikativ sohasida namoyon bo'ladigan xususiyatlarning kuchayishi va susayishi; sub'ekt emotsional tuzilishining qo'zg'aluvchanligi, reaktivligi, barqarorligi, hissiyotlarning nazorat qilinishi kiradi. Temperament faqat faoliyat va hulq-atvor usullarining dinamik xususiyatlarini belgilaydi.

REFERENCES

1. Бодалев А. А, Психология о личности. — М.: Изд-во МГУ, 1988.
2. Гамезо М.В, Домашенко И.А Атлас по психологии М; «Просвещение» 1986г
3. Davletshin M.G Umumiy psixologiya T-2002 y
4. Джемс В. Психология.- М., 1991
5. Леонгард К, Акцентуированные личности. — Киев: Вища школа, 1989.
6. G'oziev E.G' Umumiy psixologiya 1-2 kitob T-2002 y